

RIVOJLANAYOTGAN VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL IQTISODIYOTGA OTISH KONSEPSIYASI GEOGRAFIYASI

Sobirjonova Muslima Solijon qizi, Sarikulov Mirkomil Olimovich

*Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo`nalishi 1- bosqich talabasi, Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya va geografiya o`qitish metodikasi kafedrasida o`qituvchisi.
Andijon shahri Do'stlik ko'chasi 2-uy*

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'anaviy iqtisodiyotdan farqli ravishda "yashil" iqtisodiyotning paydo bo'lishi, yashil iqtisodiyotga o'tishning real imkoniyatlari va rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, MIA, VAMIL, Zero Waste, Yashil transport, bioenergiya, yashil makon, „Zero Waste”

GEOGRAPHY OF THE GREEN ECONOMY CONCEPT IN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES

Annotation: This article shows the emergence of a „green” economy, different from the traditional economy, the real possibilities of the transition to a green economy, and concepts of the transition to a green economy in developed and developing countries.

Key words: Green economy, MIA, VAMIL, Zero Waste, Green transport, bioenergy, green space, "Zero Waste"

KIRISH


Yashil iqtisodiyot - bu 20-asr oxirida shakllangan iqtisodiyotning yangi yo`nalishi bo'lib, u insonning iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini bildiradi va u har qanday holatda ham iqtisodiy o'sishga emas, balki iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan, atrof-muhit uchun minimal xavf bilan kurashishga chaqiruvchi yo`nalish hisoblanadi. Ushbu yo`nalish tarafdorlari, iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan va uning bir qismi bo'lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismi deb hisoblashadilar. Yashil iqtisodiyot yashil texnologiyalar va loyihalarga asoslanadi. Ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan muhim moliyaviy oqimlarni jalb qilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Ekologik tashabbuslarni moliyalashtirishning eng istiqbolli usullaridan biri ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalardir. Atrof-muhitga bo'lgan zararlarni kamaytirish uchun sezilarli salohiyatga ega bo'lgan uning asosiy mexanizmi "yashil" investitsiyalar kiritishdir va bu investitsiyalarni jalb qilishda "yashil" iqtisodiyotning ahamiyati katta hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni

va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

UNEP (va Buyuk Britaniya kabi milliy hukumatlar) tomonidan tabiiy kapital g‘oyalari va „yashil iqtisodiyot“ shiori ostida to‘liq xarajatlarni hisobga olish g‘oyalari tobora ortib borayotgan majburiyat maktablar o‘rtasidagi farqlarni yo‘q qilishi va ularning barchasini „yashil iqtisodiyot“ ning o‘zgarishlari sifatida qayta belgilashi mumkin. 2010 yildan boshlab Bretton-Vuds institutlari (xususan, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (o‘zining „Yashil jamg‘arma“ tashabbusi orqali) global pul-kredit siyosati uchun mas’ul bo‘lgan) biologik xilma-xillikni baholash va yanada rasmiy va universal biologik xilma-xillikka o‘tish niyatini bildirishdi. Bularni emissiya va chiqindilarni kam emas, tubdan nolga tenglashtirishni hisobga olgan holda, Nolinchi Emissiyalar bo‘yicha tadqiqot va tashabbuslar ilgari suriladi.



Yashil iqtisodiyot bu tugab borayotgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali odamlarning hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan yaxlit dasturdir. U iqtisodiyotni tubdan yangisini shakllantirishni o‘z ichiga oladi, foyda keltiradigan ishlab chiqarish va iste‘mol shakllari va atrof-muhitga minimal salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi. “Yashil” iqtisodiyot ideal tarzda insoniyatni tabiat bilan muvozanat

holatiga keltirishi kerak, bunda inson tabiatga undan olganicha qaytadi. Ijtimoiy mas'uliyatli investitsiya vositalaridan foydalanish qayta tiklanadigan energiya manbalari, "yashil" qurilish, barqaror suv ta'minoti, chiqindilarni "yashil" boshqarish amaliyoti va boshqalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda o'z samaradorligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda ekologik moliyaviy vositalar katta "yashil" loyihalarni amalga oshirish uchun moddiy resurslarning asosiy manbai bo'lib, ko'pincha "Yashil" iqtisodiyot tendensiyasining evolyutsiyasini belgilaydi.

Rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lmish Yaponiyada asosan energiya manbalarini diverfikatsiya qilishga katta e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, quyosh, shamol va bioenergiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga urg'u beriladi. Bu mamlakatda qayta ishlash va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha tizimi juda samarali. Mamlakatda „Zero Waste“ (nol chiqindi) konsepsiyasi keng yoyilgan bo'lib, sanoat va aholisining chiqindilarni kamaytirishga va qayta ishlashga bo'lgan majburiyati katta. Yaponiyada biologik xilma-xillikni saqlash, organik mahsulotlar yetishtirish va ekologik toza qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish orqali yashil iqtisodiyotga hissa qo'shilyapti.

Fransiya yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasini joriy etishda innovatsion va barqaror rivojlanish siyosatlarini ilgari surayotgan davlatlardan biridir. Mamlakat, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va resurslarni tejashni maqsad qilgan bir nechta asosiy tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Fransiyaning yashil iqtisodiyotga o'tishidagi asosiy jihatlar quyidagilardir: Parij kelishuvi va iqlim siyosati:

Fransiya 2015 yilda Parijda o'tkazilgan iqlim o'zgarishi bo'yicha BMT Konferensiyasida (COP21) muhim rol o'ynadi va bu kelishuvda global isishning 2°C dan oshmasligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan choralarni belgiladi. Fransiya o'zining milliy iqlim siyosatini shu kelishuvga muvofiq ishlab chiqdi va iqlimni himoya qilishni o'zining strategik yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Fransiyaning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan iqlim rejasi quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi: Karbon chiqindilarini kamaytirish (2030-yilgacha 40% ga qisqartirish).

Yashil energiya manbalariga sarmoya kiritish va energiya samaradorligini oshirish. O'rmonlarni himoya qilish va ekologik tizimlarni saqlash. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish: Fransiya o'z energetika siyosatida qayta tiklanadigan energiya manbalariga (masalan, quyosh, shamol, gidroenergiya) sarmoya kiritishni kuchaytirmoqda. Bu mamlakatning 2030-yilga borib, qayta tiklanadigan energiya ulushini 40% ga yetkazish rejalari mavjud. Fransiya, shuningdek, energiya ishlab chiqarishning yashil texnologiyalarini joriy etishda, jumladan, nuklearniy energiyadan foydalanishni ham davom ettirmoqda, ammo bu

energiya manbalarini barqaror va xavfsiz ishlatishga urg'u beriladi. Yashil transport tizimi: Fransiya transport sektori ham yashil iqtisodiyotga o'tishga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatda elektromobillarni rivojlantirish va ularni keng qo'llash uchun bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Fransiyada elektr transport vositalari uchun infrastruktura yaratish, masalan, zaryad stansiyalarini kengaytirish va elektromobil sotib olishda soliq imtiyozlari taqdim etish, yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim elementlaridir. Fransiyada chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-yilda Fransiya hukumati chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash bo'yicha yangi qonunlar qabul qildi, bu esa mamlakatda plastmassa chiqindilarini kamaytirish va barqaror iste'molga o'tishni maqsad qilgan. Fransiya, shuningdek, oziq-ovqat isrofgarchiligini kamaytirish bo'yicha ham yirik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. AQSHda ko'plab yirik shaharlar Nyu-York, Los-Anjeles va San-Fransisko o'zlarining yashil infratuzilma strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Shuningdek, Kanadada ham hukumati tomonidan 2030-yilgacha karbon chiqindilarini 30% ga qisqartirishni rejalashtirishgan va 2050-yilga borib karbon neytral holatga erishishni maqsad qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinganda, Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga yashil tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilg'or davlatlardan biridir. Germaniya chiqindilarni qayta ishlash hamda ulardan qayta foydalanish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Germaniyada patentli texnologiyalarning 23 foizi atrof muhit sohasiga to'g'ri keladi va shamol, quyosh energetikasi sohasidagi kompaniyalarning 30 foizdan ortig'i nemis kompaniyalariga tegishli. Yashil sektorda, ya'ni atrof-muhit va iqlimni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan sohalarda (energiya, transport, qayta ishlash, chiqindilarni yo'q qilish va boshqalar) nemis korxonalaridagi faoliyat yuritayotgan ishchilar soni, taxminan 2 million kishini yoki jami iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil qiladi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega. Ekologik innovatsiyalar sohasida Shvetsiya tajribasi muhim ahamiyatga ega. Shvetsiya-qayta tiklanadigan energiya va mahalliy yoqilg'i manbalaridan foydalanish bo'yicha jahonda yetakchi mamlakat hisoblanadi.

Yel universiteti olimlari tomonidan sayyoradagi "yashil" mamlakatlar ro'yxatini ishlab chiqilganda, Shvetsiya ushbu reytingda birinchi o'rinni egallagan. Bugungi kunda mamlakat hukumati iqtisodiyotning barcha sohalarida yashil tamoyillarni joriy etish bo'yicha faol siyosat olib bormoqda. Energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari asosiy va ustuvor yo'nalishlar bo'lib, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi siyosat darajasiga chiqarilgan. Shvetsiyada maishiy chiqindilarning 96 foizi yo'q qilinadi,

bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Ekologik investitsiyalar uchun moliyaviy imtiyozlar bo'yicha Gollandiya tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Gollandiya MIA va VAMIL - Gollandiyalik kompaniyalar tomonidan ekologik texnologiyalardan foydalanishga rag'batlantirishning ikki alohida choralari sifatida qaraladi. MIA va VAMIL Gollandiyada alohida-alohida rag'batlantiruvchi choralar hisoblansada, bu chora-tadbirlar juda ko'p o'xshashliklarga ega.

VAMIL kompaniyalarga atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligining rasmiy ro'yxatida belgilangan texnologiyalarning (uning qiymatining 75 foizigacha) amortizatsiya davrini mustaqil ravishda belgilashga imkon beradi. Shuning uchun VAMIL tadbirkorlarga texnologiyalarni tezkor tarzda amortizatsiya qilish yo'li bilan moliyaviy afzallikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga VAMIL usulidan foydalanish beradigan imkoniyatni aniq belgilash qiyin, chunki bu tadbirkorlarning VAMIL da qatnashish uchun ariza berishidagi aniq sharoitlarga bog'liq. Bu imkoniyat odatda amalga oshirilgan kapital qo'yilmalarining 3-8%ga teng deb baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "Yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "Yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to'plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo'naltirilgan model tanlanmas ekan, globallashtirish sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo'q bo'lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi,

Operatsion darajada "Yashil" iqtisodiyot emissiya va ifoslanish, resurslar samaradorligi, biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizim xizmatlari bilan bog'liq faoliyatning uchta asosiy yo'nalishiga sarmoya kiritish orqali daromad va bandlikni oshirish manbalaridan biri sifatida qaraladi. Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi sanaladi.

Aktivga zarar etkazgan yoki e'tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi mamlakat iqtisodiyotini

rivojlantirishning strategik vazifalaridan birini – mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni jalb qilishni hal qilish zarurati bilan belgilanadi. “Yashil” iqtisodiyot sohasida ushbu muammoni hal qilish “yashil” investitsiyalarning yangi amaliyotlarini shakllantirishni, muntazatazam ravishda baholashni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-3107036>.

2. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC) - Paris Agreement (2015).

3. Turg‘unboyeva M.U., Sarikulov M.O. Iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy ekotizmlarni asrash. “Экономика и социум” 11(126) 2024 y.

4. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son.

5. Зомонова Э. М. Понятие и принципы «Зеленой» экономики. АНИ: экономика и управление. 2016. Т. 5. № 1(14)

6. Зеленая экономика: здравоохранение / United Nations Environmental Programme: GreenEconomy. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.unep.org/greeneconomy/Portals/88/documents/research_products/briefingpapers/Ru_GE_HEALTH.pdf/ (дата обращения: 23.05.2014).